


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHITIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UPHI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

FILOLOGIYA

Yakubova Matluba Tajiboevna

Ma'mun universiteti

Roman-german filologiyasi kafedrası

SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR
SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670058>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Erkin Samandar she'riyatidagi leksik va badiiy vositalarni o'rganishga qaratilgan. Muallif she'rlarda ishlatilgan izofa va arxaizm kabi leksik birliklarni tahlil qilib, ular orqali tarixiy voqealar, madaniy qadriyatlar va milliy ruhning ifodalanganligini ko'rsatadi. Shoir o'z asarlarida yuqori hurmatni aks ettiruvchi izofali ifodalarni ishlatgan, shuningdek, istorizm va arxaizm elementlari orqali tarixiy voqea va shaxslarni tasvirlashda badiiy mahoratni ko'rsatgan. Maqolada shuningdek, shevaga hos leksik birliklar ham tahlil qilinadi, chunki shoir she'riyatida o'ziga xos so'z boyligi va dialektal ifodalar mavjud. Sohaviy leksika, arxaizm, istorizm va shevaga xos bo'lgan leksik birliklar orqali she'riyatdagi milliy ruh va tarixiy tafsilar yuksaltirilgan. Maqola, ijodkorning she'riyatida xalqning tarixiy xotirasini saqlash va madaniy merosni o'z zamonida yangicha usulda ifodalashdagi mahoratini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Istorizm, leksik birliklar, poetizm, arxaizm, leksik-semantik, dialekt.

Matluba Tajibaeva Yakubova-

Department of Roman and Germanic Philology,

Mamun University

THE ARTISTIC SIGNIFICANCE OF DIALECTAL LEXICAL UNITS IN THE
POETRY OF ERKIN SAMANDAR

ABSTRACT

This article focuses on the study of lexical and artistic devices used in the poetry of Erkin Samandar. The author analyzes lexical elements such as izofa constructions and archaisms in the poet's works, highlighting how they express historical events, cultural values, and national spirit. The poet effectively uses izofa expressions to convey high respect and demonstrates artistic mastery through the use of historicisms and archaisms in depicting historical figures and events. The article also analyzes dialectal lexical units, as the poet's language is rich in unique vocabulary and regional expressions. The use of professional vocabulary, archaisms, historicisms, and dialectal elements elevates the national spirit and historical context in the poetry. This study reveals the poet's skill in preserving the historical memory of the people and expressing cultural heritage through a modern poetic lens.

Keywords: historicism, lexical units, poetism, archaism, lexical-semantic, dialect.

Якубова Матлуба Тажибаевна-
кафедра романо-германской филологии
Университета Маъмун

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДИАЛЕКТНОЙ ЛЕКСИКИ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА САМАНДАРА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению лексических и художественных средств, используемых в поэзии Эркина Самандара. Автор анализирует такие лексические единицы, как изофетные конструкции и архаизмы, показывая, как с их помощью в стихах отражаются исторические события, культурные ценности и национальный дух. Поэт использует изофетные выражения для передачи уважительного отношения, а также демонстрирует художественное мастерство через использование историзмов и архаизмов при описании исторических личностей и событий. В статье рассматриваются также диалектные лексические единицы, так как язык поэта богат своеобразной лексикой и региональными выражениями. Использование профессиональной лексики, архаизмов, историзмов и диалектизмов придаёт поэзии национальный колорит и историческую глубину. Исследование раскрывает мастерство поэта в сохранении исторической памяти народа и выражении культурного наследия в современных поэтических формах.

Ключевые слова: историзм, лексические единицы, поэтизм, архаизм, лексико-семантический, диалект.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Til har bir millatning eng bebaho boyligidir. Adabiy til esa milliy tafakkurning, estetik dunyoqarashning eng yuksak shaklidir. Shoir va yozuvchilar adabiy tilni boyitish, xalq ruhiyatini ifoda etish maqsadida turli usullarga murojaat qiladilar. Ayniqsa, dialektal birliklar va arxaizmlarning poeziyada qo'llanilishi she'rga milliy kolorit, tarixiy ruh, obrazlilik kabi estetik jihatlarni baxsh etadi. Erkin Samandar ijodi bu borada yorqin namunalardan biridir. U o'z asarlarida Xorazm shevalariga mansub so'zlar, arxaik leksik birliklar hamda majoziy ifodalar orqali xalq tilining nozik ohanglarini poeziyaga singdira olgan ijodkordir. Shoir o'zining she'riy dramalari, lirik asarlari va dostonlarida xalqona ruhni, og'zaki nutqning tabiiyligini saqlagan holda poetik tasvir kuchini oshirishga erishgan.

Bugungi kunda tilshunoslikda adabiy til va shevalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ayniqsa, badiiy adabiyotda ularning uyg'unlashuvi muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dialektal birliklarning poetik matndagi funksional imkoniyatlarini o'rganish, shoirning badiiy mahoratini tahlil qilish uchun zarurdir. Erkin Samandar ijodida shevalar va arxaizmlarning mohirona qo'llanilishi orqali she'riy asarlarga o'ziga xos milliy ruh, tarixiy kontekst va obrazli chuqurlik kiritilgan. Ushbu masala bugungi tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, badiiy tilning imkoniyatlarini, milliy identitetning ifodasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotda taqqoslama, leksik-semantik va kontekstual tahlil metodlari qo'llanildi. Sheva so'zlari va arxaizmlar matnda o'rganilib, ularning poetik funksiyasi aniqlangan. Erkin Samandar asarlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi.

1. Qiyosiy-tahliliy metod

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod asosida Erkin Samandar she'rlarida qo'llanilgan sheva so'zlari va arxaizmlar adabiy til normalari bilan solishtirilib o'rganildi. Ularning poetik funksiyasi va badiiy-estetik ahamiyati aniqlandi.

2. Leksik-semantik metod

. Tadqiqotda leksik-semantik metod qo'llanib, Erkin Samandar she'riyatidagi sheva so'zlari va arxaizmlarning ma'no doirasi, ularning kontekstdagi ifoda imkoniyatlari tahlil qilindi.

3. Etnolingvistik metod

She'r matnlarida qo'llangan arxaizmlar, istorizmlar, izofaviy birikmalar, shuningdek, tarixiy toponimlar, diniy atamalar, ijtimoiy-siyosiy va harbiy leksik birliklar xalqning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini, tarixiy tafakkuri, urf-odatlarini va dunyoqarashi bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Ushbu birliklar orqali xalqning tarixiy xotirasi, estetik didi hamda milliy o'zlik ifodalanadi.

4. Kontekstual tahlil

She'riy matnlarda qo'llangan til birliklari ularning matndagi vazifasi, estetik-badiiy yuklamasi va ma'no qatlamlari asosida tahlil qilindi. Leksik birliklar muayyan kontekstda qanday funksional yukni bajarayotgani, ular orqali obraz, muhit, tarixiy voqelik va poetik ohang qanday gavalanganini ochib berildi.

Ushbu ishda Erkin Samandar she'riyatidagi tarixiy va poetik leksik birliklar chuqur o'rganilib, ular semantik, stilistik hamda funksional jihatdan tahlil qilindi. Jumladan, izofa shaklidagi poetik ifodalar, arxaik va istorizm leksik birliklarning matndagi badiiy vazifasi, ularning estetik-emotsional ta'siri yoritib berildi. Matnlarda qo'llangan forscha, arabcha va turkiy manbali so'zlar orqali shoirning uslubiy mahorati ochib berildi. Bunda poetik birliklar faqat semantik jihatdan emas, balki ularning kontekstual va madaniy zamin bilan bog'liqligi, u orqali tarixiy voqelikni aks ettirishdagi roli tahlil markazida bo'ldi. She'riy misralarda aks etgan diniy, harbiy, siyosiy terminlar va toponimlarning stilistik ahamiyati hamda ularning xalq og'zaki ijodi va milliy tafakkur bilan bog'liqligi ham yoritib berildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Badiiy ijod milliy tilning barcha sathlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Shoir she'riyatining mavzu doirasi hayot qadar keng doirani qamrab oladi. Shu boisdan lirikada tasvir taqozosi bilan chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar), o'z va o'zlashma so'zlar qatlamining barcha boyliklari ishtirok etadi. Bu yo'nalish lingvopoetik tadqiqot doirasida poetik leksikologiya deb yuritiladi [11]

Ijodkor she'riyatda yoki nasrda bo'lsin, so'z tanlaganda tasodifiylikka yo'l qo'yilmaydi. Chegaralangan leksika lug'aviy boyliklaridan muayyan maqsadlardagina foydalanadi.

Ularni istifoda qilish shoir badiiy niyatini amalga oshirishda muhim omil sifatida ishtirok etadi. Erkin Samandar lirikasida chegaralangan leksika va o'zlashma so'zlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Dastlab shoir lirikasidagi sheva unsurlariga to'xtalamiz. Tilshunoslikda bu soha dialektizmlar deb yuritiladi. Ushbu sohani o'rgangan tilshunos olim B.Fayzullaev shunday yozadi: "Ayrin sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida bir dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir" [10]

Erkin Samandar Xorazm farzandi bo'lib, o'g'uz lahjasida so'zlovchi aholi og'ushida voyaga yetgan. Shu sababli uning she'rlarida mazkur shevaga oid leksik birliklar uchray turadi:

*Nahordek jilvagar, sernoz,
Bahordek **durmishi** pardozi,
Vafodek nodiru mumtoz,
Amudek serjilo, lazgi* [3] (Nazm nafasi, 167-bet).

She'r Xorazm lazgisi haqida bahs etganligi sababli unda vohaga xos biror chiroyli so'zni ishlatish misralarga, matnga zeb berishi tabiiy. Shu sababli shoir o'z asariga mahalliy kolorit baxsh etish uchun Amu nomini tilga oladi, shu bilan birga **durmushi** so'zini misra qatiga qistirib o'tadi. Bu so'z o'zbek adabiy tilida "**turgan –bitgani**" degan ma'noni anglatadi. Albatta, adabiy tildagi muqobil variantni ushbu misra qatiga qo'shgan taqdirda vazn buziladi. Bundan tashqari, she'rdagi poetik ohang batamom so'nadi. Shu jihatdan olganda ushbu shevaga oid so'zning she'rga kiritilishi badiiylik nuqtai nazaridan o'zini oqlaydi.

"Ajdodlar qilichi" she'riy dramasida Jaloliddin onasining monologi berilgan:

*Men so'ylasam, quloq solar na'ramga ellar,
Aks-sado berar notinch, o'tkinchi shamol.
Ohlarimni bir xas kabi uchirmoq bo'lib,
Duvalangga aylanadi sokin yel gohi.* [3]

Xorazm o'g'uz shevalarida **duvalang** so'zi to'zon, shiddatli shamol, bo'ron ma'nolarini anglatadi.

Shoir ushbu dramani Xorazm tarixiga oid murakkab voqealar asosida yozgan. Hayotiy voqealar tasviri jarayonida mahalliy shevaga oid so'zlarni ishlatish o'z-o'zidan yozuvchiga mas'uliyat yuklaydi. Qolaversa, mazkur to'rtlikda majoziylikka aloqador badiiy maqsad ham mavjud. Shoir tabiatdagi duvalang-bo'ronni ona qalbiga ko'chirish, onaning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qildirishni maqsad qilib qo'ygan. Shu sababli **bo'ron** so'zi o'rnida **duvalangni** qo'llash asar mazmun-mohiyatiga, obraz his-tuyg'usini ifodalashga juda mos tushadi.

Ijodkor sheva so'zlarini ishlatishga matn mohiyatini hisobga olgan holda yondashadi. "Davdon chiqirchi" she'rida Xiva hukmdori Isfandiyorning Davdonning otini zo'ravonlik qilib tortib olishi voqeasi bayon etiladi.

*Birinchi bor yig'ladi Davdon,
O'z ko'zida yosh ko'rdi xunli,
Va ko'rdiki, saqanqur ekan,
Isfandiyor saroyda **ulli**. [5] (Yurakka yo'l, 144-bet).*

She'rida Isfandiyorning zo'ravonlik qilmishlari qoralanadi.

Isfandiyor Xiva hukmdorlari orasidagi eng zulmkor xon sifatida tanilgan. She'rga razm solinsa, uni shoir saqanqur tarzida nomlaydi. Saqanqur echkamar ma'nosiga ega. Davdon tomonidan berilgan bu nomning ma'nosida majoziylik ham bor. Echkamar hayvonlarni zo'rlab emsa, xon xalq qonini so'rgan zolim, degan hukm-xulosa chiqadi. Endi misradagi **ulli** - sheva so'ziga kelsak, bu leksema ulug' ma'nosini ifodalaydi. Ammo shoirning Isfandiyordek jirkanch shaxsni xon, ulug' deb atash istagi yo'q. She'rga **ulli** so'zini kiritishdan maqsad ham shu.

Xullas, Erkin Samandar she'riyatida shevaga xos so'zlar ancha faol ishlatilgan. Ularning har biri biror poetik maqsad doirasida istifoda etilib, she'rning ma'nodorligini oshirish, poetik aktualligini yuksaltirish, milliy koloritni yorqinroq ko'rsatish maqsadida qo'llanilgan.

Arxaizmlar. Mazkur atama yunon tilidan olingan bo'lib, "**qadim**", "**qadimgi**" degan ma'noga ega. Ular hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so'z va iboralardir. [12]

Ijodkor eskirgan so'zlarni istifoda qilishda muayyan bir maqsadni ko'zda tutadi. Shoir lirikasida tarixiy mavzu katta o'rin egallaydi. Ushbu mavzuni yoritishda u, albatta, moziyda ishlatilgan so'z va iboralarga murojaat qiladi. Bizga ma'lumki, eskirgan so'zlar o'zi ishlatilgan davr ruhini ifodalashga xizmat qiladi.

Erkin Samandar she'riyatida eskirgan so'zlarning turli mavzu guruhlari uchraydi. Ularni shartli ravishda bir qancha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mifologiyaga aloqador nomlar.

Dev, ajdar. "Ajdodlar qilichi" she'riy dramasida Jaloliddinning onasi tilidan aytilgan monologda ushbu ikki nom ishlatilgan:

*Bor jilg'alar bir-biriga qo'shilsalar gar,
Aylansalar yak bahrga, nahrul ummonga,
To'lqinlarga dosh berolmas na dev, na ajdar,
Daryo bo'ling, bolalarim, dengiz bo'linglar [5]*

Shoir ushbu misralarga dev va ajdar nomlarini muayyan maqsad bilan kiritgan. Ma'lumki, dev, ajdar kabi mifologik obrazlar o'zlarining yovuz va bahaybatligi bilan tanilgan maxluqlardir.

Ona ushbu nomlarni tilga olar ekan, ular qiyofasida Chingiz to'dalarini nazarda tutadi. Shu sababli yigitlarni, farzandlarni birlashishga, yovuzlarni yengishga chorlaydi. Ijodkorning asosiy maqsadi bosqinchi, yovuz dushmanning jirkanch qiyofasini ko'rsatishdir.

2. Diniy tushunchalarga oid so'zlar.

Qiyomat.

*To'qiyomat uch-to'rtta ulfat,
Do'stligini ayon etarlar.
Do'st uyida to'y bo'lsa, albat
Bir ko'rinish berib ketarlar [5]*

Qiyomat soʻzi oxirat, mahshar maʼnolarida qoʻllanilgan. Shoir doʻstlar sadoqatining buzilmasligi, adabiyligini mubolagʻaviy tarzda koʻrsatish uchun mazkur soʻzga murojaat qilgan.

Afsun.

*O, falak ayt, chek bormidur **afsunlaringga**,
Tokay koʻnglim boʻstoniga toshlar otasan* [5]

Afsun – sehr, avrash, makr maʼnolariga ega boʻlib, misrada falakning kutilmagan nayranglariga ishora sifatida qoʻllanilgan.

Kufr. Mazkur soʻz shoir ijodida gunoh maʼnosida ishlatilgan.

***Kufr** soʻzni aytma, oʻgʻlim,
Taqdirga sen ham
Itoat qil, eldan chiqma!* [5]

Aslida bu soʻz dinni eʼtirof etmaslik, shakkok, kofir maʼnosini anglatadi. Shoir esa oʻsha semantik doiradagi soʻzlardan birini tanlagan.

Maʼbuda - xudo, iloha, mahbuba maʼnolariga ega. Shoir sheʼrida uni goʻzallik maʼbudasi Afrodita qiyofasi ramzida tilga olgan.

*Tirik bir maʼbuda Afrika
Olchoqlar ilgida xoʻrlangan* [5]

Afrika oʻz tabiati bilan goʻzal oʻlka hisoblanadi. Oʻsha elning bosqinchilar tomonidan xoʻrlanishi shoir dilini ogʻritadi. Shu sababli uni maʼbuda sifatida ulugʻlaydi.

3. Turli maishiy voqea-hodisalarga oid nomlar: aqcha, ganj, tillo –pul oʻrnida qoʻllangan leksik birliklar.

Aqcha –pul, ganj –xazina, tillo-pul birligi kabi maʼnolarni anglatadi.

*Xoinlar oyoqdan oldilar, shohim,
Aqchaga sotildi Qoracha hojib.
Ha, Hurganjni senga ato etdim oldindan,
U seniki boʻlur maʼmur **ganjlari** ila* [3]

***Tillo** berib olmoqchi ham boʻlganlar,
Ishqibozlar bari dogʻda qolganlar* [1]

Ushbu misralardagi aqcha, ganj, tillo soʻzlarining barchasi boylik semantik doirasidan oʻrin oladi. Ijodkor esa ularni har bir joyda oʻziga xos maʼno qirralariga qarab tanlaydi.

Birinchi namunada *aqcha* soʻzining ishlatilishiga sabab, uning mazkur nomlar orasida boylikning eng ozi, kichigi ekanligidir. Soʻzlovchi xoinning arimas pulga sotilganini qayd qilayotir.

Ikkinchi namunada boylikning xazina shakli haqida soʻz boradi. Bu misralar moʻgʻul hukmdorining ochkoʻzlik bilan aytgan soʻzlari boʻlib, hisobsiz boylik, xazina koʻzda tutilgan. Shuningdek, misralardagi gap maʼnosida yovuzlik va ochkoʻzlik, talonchilik kabi tushunchalar ham yotadi.

Oxirgi namunada ishlatilgan tillo soʻzi qimmatbaho maʼnosini anglatadi. Soʻzda tilla suvi berilgan nosqovoqning qadr-qimmatini mubolagʻali tasvirlangan.

Sudxoʻr, qimor soʻzlarining birinchisi foydaxoʻr, pulni foydaga beruvchi, ikkinchisi pul tikib oʻynaladigan oʻyin, gard-kam maʼnolarida ishlatilgan. Shoir bu soʻzlarni sheʼrda tasvirlanayotgan davr ruhini berish uchun tanlagan:

*Qoʻl choʻzmasin unga **sudxoʻrlar**,
Unga dehqon xoʻjayin yakka.
Kecha-kunduz **qimor** oʻynab,
Badiynatu zangʻar...* [5]

Birinchi misolda oʻtgan asrning 30-yillari haqida soʻz borgani sababli sudxoʻr soʻzi qoʻllanilgan. Chunki oʻsha davrda bu toifaga aloqador kimsalar boʻlgan.

Soʻnggi namuna Avaz Oʻtar tilidan bayon etilib, XX asr boshlaridagi hayot manzarasi gavdalanitiriladi.

Kungura - me'moriy bezak yoxud devorga tayanch sifatida ishlangan gumbazsimon dandana.

*Selni sezgan yakka o'tovday,
Qaltirardi kungurali uy [5]*

Ushbu misolda *kungura* so'zi davr ruhini aks ettirish uchun keltirilgan. "Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning iloji yo'q". [13] Shu sababli shoir mazkur toifa so'zlarni o'rni bilan ishlatib davr ruhini qayta tiklashga harakat qiladi.

4. Arxaik izofalar. Izofa so'zi birikish, qo'shish ma'nolariga ega bo'lib, tilimizga forsiy xalqlardan o'tgan.

Erkin Samandar lirikasida izofaning bir qancha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular turli maqsadlarni ifodalashga xizmat qilgan va she'rlarning ohangdor, o'ynoqi, ma'nodor chiqishiga samarali ta'sir o'tkazgan.

*Kurrai zamin – yer kurrasi
Kurrai zaminda ne ham topilmas,
Menga –ku bas, yozsam nurli she'r, doston [1]*

She'rdagi izofa faxr bilan tilga olingan. Ona yerimizning saxovatli, boy ekanligiga urg'u beriladi, o'z navbatida misralar tantanavorlik kasb etgan.

*Charxi dun – harakatdagi dunyo.
O'qida aylanar charxi dun,
El mudom yerim deb kuymanar.
Kuymanar momo yer olmay tin,
O'qida charxi dun aylanar [1]*

Izofali birikma she'rga tarixiylik, falsafiylik va ohangdorlik baxsh etgan. Qolaversa, shoir ushbu she'rida moziyga qaytib ish ko'rmoqchi. Shu sababli so'zni qadimdan boshlagan. Bu usul xuddi ertaklardagi boshlanmalarga o'xshab ketadi. Kitobxonni tezda o'ziga jalb etadi. She'ring keyingi misralarida mazkur uslub yanada konkretlashadi. Shu sababli she'ring nomi ham "hikoyat" deb atalgan. Unda Xorazmning birinchi poytaxtida bo'lib o'tgan voqealar hikoya etiladi.

Hangi har – hangi eshak. Ushbu izofa ham shoir ijodida qo'llanilgan.

"Hikoyat" she'rida arab bosqinchilariga sotilib, o'z inisini qatl qildirib, Kat hukmdorligini egallagan Chag'onbiy qilmishlari fosh etiladi.

*Boshiga toj kiydi banogoh,
Ko'knor yeb quturgan hangi har.
Urchidi o'lkada qarg'a –zog',
Nur qochdi bog'larning rangidan.
Boshiga toj kiydi Chag'onbiy,
Shahri Kat tojini yo'qotdi. [1]*

Shoir sotqin tojdorning sharmandali qiyofasini ifodalash uchun yuqoridagi masxaraomuz izofaviy birikmadan foydalangan.

Ushbu toifa izofalar va leksik birliklar she'rda poetik ohangdorlikni yuksaltiradi. Ayniqsa, go'zallik tushunchalarini mubolag'ali tasvirlashda o'zlashma so'z va iboralarga faol murojaat etilib, mifologik obrazlarga ham e'tibor qaratiladi.

Binobarin, arxaizm – eskirgan so'zlar ham ijodkorning badiiy mahoratini yuksaltirish, asarning badiiy-estetik ruhini oshirishda muhim poetik vosita bo'lib xizmat etadi.

Istorizmlar. Badiiy adabiyot o'z millatining yashash tarzini, xalq istiqomat qilayotgan voqelikni aks ettiradi. O'sha jarayonda xalq hayotiga oid turli voqea-hodisalar tilga olinishi tabiiydir. Shunday ekan, badiiy matn tarkibida "hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizm (tarixiy so'zlar) ko'plab ko'zga tashlanadi. Istorizmlarning arxaizmlardan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham, uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak, istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir" [13]

Erkin Samandar she'riyatining katta bir qismi tarixiy voqealarni aks ettirishga bag'ishlangan. Shu sababli ularning leksik tarkibida ko'plab tarixiy so'zlar uchraydi. Ularni ma'no-mazmuniga qarab, bir qancha turlarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy – siyosiy sohaga oid istorizmlar.

Vaziri a'zam, valiahd, dorussaltana.

Rost aytadur Nizomulmulk – vaziri a'zam.

Qil ustida turar go'yo dorussaltana [3]

Vaziri a'zam – bosh vazir ma'nosiga ega. Xorazmshoh davrida o'sha mansab amalda bo'lgan va keyinchalik ham davom etgan. Mazkur birikma arab tilidan o'zlashgan.

Qutbiddin O'zlohshoh – boodob o'g'lim,

Toj – taxtning navqiron valiahdidir [3]

Valiahd misrada ko'rsatilganidek, toj-taxt merosxo'ridir. Bu nom ham arab tiliga mansubdir. Shoir bu misralarni Jaloliddindan arazlagan shohning so'zi sifatida keltirgan.

Dorussaltana - saltanat makoni, oliy hukmdor qarorgohi, poytaxt ma'nosini anglatadi. Odatda, saroy ahllari o'z so'zlarida balandparvoz, tantanavor leksikani ishlatganlar. Shu sababli mazkur toifa leksik birliklar mansabdorlar tilidan beriladi.

2. Harbiy sohaga oid istorizmlar.

Shoir ijodida aksariyat she'rlar Jaloliddin Manguberdi hayotiga bag'ishlangan. Shu sababli buyuk sarkarda tomonidan olib borilgan dahshatli urush voqealari qalamga olinadi. Natijada turli harbiy mansablar, qurol-aslahalar, urush qonun-qoidalar bilan aloqador atamalar matn tarkibidan o'rin egallaydi.

Lashkar, sarboz, cherik, sarkarda:

Qush yolg'iz uchmaydi uzoqqa,

Safarga chiqadi to'p bo'lib,

Lashkardek saf bo'lib ko'p bo'lib [3]

Tagi past sarbozni sarkarda aylab,

Sahv qilganimga endi iqro'men [3]

Ko'p sirlardan ogoh etdi bizni Badriddin,

Chingiz makri, cherik soni, qurol-aslaha [3] (Nazm nafasi, 250-bet)

Shoir birinchi misoldagina **lashkar** so'zini o'xshatish tarzida qo'llagan. Boshqa barcha o'rinlarda harbiy mansablar urush jarayoni bilan bog'liq. **Lashkar** – forscha qo'shin degan ma'noni anglatadi. **Sarboz** so'zma-so'z tarjimada bosh o'ynatuvchi, piyoda jangchi ma'nosini beradi. **Sarkarda** qo'mondon demakdir. Bu atamalarning barchasi fors tili bilan aloqador.

Cherik – mo'g'ul tilida oddiy jangchini anglatadi. Ijodkor bu atamalarni ma'lum bir badiiy maqsadda tanlab, tarixiy voqelikni gavdalandira olgan.

Harbiy mansablar orasida **navkar**, **sardor**, **suvoriy** atamalari ham uchraydi. **Sardor sarkarda** so'zi bilan teng ma'noga ega. **Navkar** mo'g'ul tilida askar ma'nosini anglatadi. **Suvoriy** esa fors tilida otliq askar, chavandoz ma'nolarini bildiradi.

Bo'ronlarning zuryodlari alp-navkarlar

Chavandozlar! Egiltirmang boshlaringizni [3]

Har tarafdankim suvoriyman degan kelmish oqib,

O'zlari polvon emishlar, otlari ko'rkam emish [3]

Ijodkor **navkar** so'zini piyoda askar ma'nosida ishlatgan. **Suvoriy** so'zi esa she'rlarda ikki ma'noda: birinchisi chavandoz, ikkinchisi – otliq askar ma'nolarida berilgan. Biz keltirgan misolda chavandoz ma'nosi anglashiladi.

Shoir ushbu atamalarni tasvir taqozosi bilan misralarga joylagan.

3. Diniy sohaga oid istorizmlar.

Badiiy adabiyotni diniy tasavvurlardan ajratib qarab bo'lmaydi. Negaki, din ham, adabiyot ham inson va uning baxt-saodati haqida qayg'uradi. Ayniqsa, millatimiz tarixida kechgan voqea-hodisalarning barchasi din-shariat qoidalar bilan uzviy bog'lanib ketgan.

Har qanday yozuvchi tarixiy voqelikni qayta yaratar ekan, o'sha ijtimoiy tuzumdagi mafkura nuqtai nazaridan ish yuritish lozim.

Erkin Samandarning o'tmish haqida yozgan barcha she'riy asarlarida islom diniga aloqador tarixiy so'zlar qo'llanilgan.

Mulla, mufti, eshon.

Mulla va *mufti* so'zlari arab tiliga oid bo'lib, birinchisi o'qimishli odam, ikkinchisi fatvo beruvchi degan tushunchalarni anglatadi. *Eshon* so'zi esa forsiy o'zlashma sanalib, din peshvosi ma'nosini ifodalaydi.

Erkin Samandar she'rlarida bu nomlar vaziyat, voqealar tasviri munosabati bilan qo'llanilgan:

Sipohi pora istar,

***Mulla** ijara istar...*

***Mufti**: shohlar besabab*

Qonlar to'kmaslar...

Topshiringlar uni tezda

***Eshon** ilgiga [5]*

Ushbu diniy mansab nomlari shoirning Avazga bag'ishlangan she'riy dramasida uchraydi. Ijodkor shoir Avazni din ahllari bilan munosabati masalasida o'sha tarixiy so'zlardan o'rni bilan foydalanadi, davr ruhini qayta yaratadi.

Madrasa, jome machit, gumbaz, minora.

Borsangiz ko'rasiz. Ichon qal'ada

***Gumbazu minoralar**, madrasalar ko'p [2]*

***Jome machit** bulbullari o'qishar g'azal [5]*

Yuqoridagi keltirilgan parchalardagi *gumbaz*, *minora*, *madrasa*, *jome*, *machit* nomlari Xiva shahri manzarasini tasvirlash maqsadida tilga olingan. Chunki Xiva shahrini qadimgi obidalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

4. Tarixiy toponim va gidronimlar.

Kat, Jurjon, Jayhun.

Har bir ijodkor tarixiy voqealarga murojaat qilar ekan, makon va zamonni hisobga oladi. Zamonga qarab makonni tilga oladi.

Erkin Samandar she'riyatida qadimgi Xorazm bilan aloqador ko'plab toponim, gidronim va boshqa onomastik birliklar qayd qilinadi:

Kat ila Xiyvaqning Chag'onbiy

Qonini simirmoq istadi [1]

Payhon etgan gulu rayhonni,

*Suvga g'arq aylagan **jurjonni**.*

*Ulus qoniga **Jayhun** bo'lganida g'arq,*

*Yonib kullarga aylangan turob **Xiva** [5]*

Tarixiy voqealar tasvirini berish o'sha davrda mashhur bo'lgan qal'alar, daryolar, dengizlar nomlarini keltirishni talab qiladi. Shundagina tarixiy voqelik asarda o'z real ifodasini topadi.

5. Boshqa hayotiy hodisalarga oid istorizmlar.

Jallod, poshshob, mahram.

Mazkur nomlar saroy doirasidagi xizmatchilar vazifasiga oiddir.

Zolimlarning kuni bitar,

***Jallodlarni** qoning tutar...*

*Yetmish ikki, sanaydi **poshshab**,*

Qon tomadi arshin qamchidan.

Uni xonga yetkazibdi

*Ayg'oqchi **mahram** [5]*

Jallod –o'limni amalga oshiruvchi, *poshshab*-darra uruvchi, mahram esa hukmdorlarning yaqin, ishonchli kishisi hisoblanadi.

Saroy hayoti haqida yozish ushbu nomlarni qayd qilishga olib keladi.

Chiqir, chetanaarava.

Dehqonchilikka oid ushbu asbob –uskunalar hozirda unutilib ketgan.

Ariqlardan g'ildiraklar vositasida tuya, ot kuchi bilan suv chiqaruvchi asbob *chiqir* deb yuritilgan. *Chetanaarava* esa xoda to'siqlar bilan o'ralgan chetan ichiga paxta ortishga mo'ljallangan.

Shoir dehqonlar hayotiga bag'ishlangan she'rlarida ushbu asboblarni ham aytib o'tadi.

Xullas, istorizm-tarixiy so'zlar ham voqelikni qayta jonlantirishda yozuvchi uchun tayanch vazifasini o'taydi, muhim bir badiiy unsur sifatida xizmat qiladi.

Lug'at boyligimizning bir qismi bo'lgan chegaralangan leksikadagi dialektizmlar, arxaizm va istorizmlar o'ziga xos bir xazinadir. Ulardan badiiy asarda foydalanish ijodkordan katta mahorat va mas'uliyat talab qiladi. Ularda hamisha milliylik va milliy tarix aks-sado beradi.

XULOSA

Erkin Samandar she'riyatida tarixiy-madaniy kontekst va badiiy tilning ahamiyati katta. Shoir izofa, arxaizm va istorizmlardan samarali foydalangan holda o'z asarlarida milliy qadriyatlarni, tarixiy voqealarni va shaxsiy tasavvurlarni tasvirlashda o'zining badiiy mahoratini namoyon etadi. Izofali ifodalar ota-ona, hukmdor kabi obrazlarga nisbatan yuqori hurmatni ifodalashda ishlatilgan. Arxaizmlar va istorizmlar esa tarixiy ruhni o'zida mujassamlashtirib, davrni va ijtimoiy tuzumni ifodalovchi leksik birliklar sifatida she'rlarning badiiy ta'sirini kuchaytirgan. Erkin Samandar o'z she'riyatida xalqning tarixiy xotirasini va madaniy merosini saqlab, badiiy tilni boyitgan.

Iqtiboslar/ References/Сноски

1. Erkin Samandar. Bu bog'ni ne bog' derlar. – Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1982. –160 b.
2. Erkin Samandar. Bahor oqshomlari. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1984.–80 b.
3. Erkin Samandar. Nazm nafasi. Saylanma. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 348 b.
4. Erkin Samandar. Mening yigit vaqtim. Lirik. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. –212 b.
5. Erkin Samandar. Yurakka yo'l. She'rlar va doston. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. –B.160.
6. Erkin Samandar. Amu jilolari. She'rlar. –Toshkent, 1966. –64 b.
7. Erkin Samandar. Vafo degan gavhar. She'rlar va doston. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. –80 b.
8. Qabuljonova G. Metafora va uning tabiatiga qarashlar. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2017. –№2. –B.40-46.
9. Qurbonboev I. Metaforaning g'oyaviy – badiiy vazifalari. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005. – №1. –B.66-71.
10. Fayzullaev B. Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1977. –№4. –B.35-38.
11. Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003. –№2. –Б.86.
12. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи. –Б. 15
13. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.57.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000